

AMIR TEMUR DAVLAT BOSHQARUVIDA DESTRUKTIV (BUZG'UNCHI) TA'SIRLARGA QARSHI OLIB BORGAN FAOLIYATI

Madraximov Vaisbay Baxtiyarovich

O'R Qurolli Kuchlari Akademiyasi, kafedra boshlig'ining o'rinbosari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amir Temurning davlatni boshqarishda destruktiv ta'sirlarga qarshi olib borgan chora-tadbirlari tahlil qilindi. U saltanatni o'z davlatini har qanday kutilmagan voqealardan, destruktiv ta'sirlardan saqlashni, himoya qilishni bilgan. Ularga qarshi qattiq chora-tadbirlarni ko'rgan. Amir Temur arkoni davlatda halol, sidqidildan xizmat qilganlarni taqdirlab, martabalarini yuksaltirgan, ig'vogar, zulmkorlarning qattiq jazosini bergan. Uning fe'l-atvorida ikkilanish, og'machilik, bugun bir so'zni aytib, ertasiga unga qarama-qarshi boshqa so'z aytish bo'lmaganligi ham maqolada yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Osiyo va Yevropa, harbiy tashkilotchi, sarkarda, davlat arbobi, saltanat, sulola, adolat, Oqsaroy, barqarorlik, destruktiv, siyosiy, madaniy, kuchli, mustahkam, xalq, farovon*

Amir Temur – bizning g'urur va iftixorimiz, xalqimiz dahosining timsoli, ma'naviy qudratimiz ramzidir. Buyuk sohibqiron Amir Temur bobomiz Oqsaroy peshtoqiga “Adolat – davlatning asosi va hukmdorlar shioridir”, degan hikmatli so'zlarni yozdirgani bejiz emas. Sohibqiron nafaqat o'z davridagi eng qudratli davlat asoschisi, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat homiysi, balki Osiyo va Yevropa qit'alarida ro'y bergan tarixiy o'zgarishlarga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatib, dunyo rivojiga beqiyos hissa qo'shgan shaxsdir.

Tarixni davr yaratadi, albatta bu fikrda chuqur ma'no bor. Shu bilan birga, jamiyatdagi katta burilishlar, jiddiy o'zgarishlar odatda yirik siymolar faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Davlat rahbarining xalq ommasini o'z g'oyalari atrofida birlashtirishi, ularni buyuk maqsadlar sari safarbar eta bilishi katta o'rin egallaydi. Amir Temur shunday rahnamolik hislatlariga ega bo'lgan dono hukmdor bo'lgan.

Sohibqiron davrida yashagan, uni ozmi-ko'pmi bilgan vatandoshlarimiz va u bilan muloqatda bo'lgan xorijiy shaxslar qoldirgan bitiklar, xotiralar shundan dalolat beradiki, Amir Temur shaxsi ko'pqirrali, murakkab, buyuk xoqon, itoatkor, musulmon, katta zafarlar quchgan sarkarda, ilmu-fan va madaniyat homiysi, tarixda o'chmas iz qoldirgan bunyodkor arbob bo'lgan [1].

“Zafarnoma” muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy yozganidek, Temur bir vaqtning o'zida o'z dushmanlariga ofat, o'z askarlariga qattiqqo'l rahbar, o'z xalqiga esa ota bo'lgan.

Sohibqiron o'z saltanatida tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlashga eng asosiy vazifa deb qaragan va bu borada barcha choralarni ishga solgan. Buning natijasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda ulkan yutuqlarga

erishgan. Bunday siyosat tufayli xalq bilan davlat o'rtasida o'zaro hamkorlik, bir-birini qo'lab-quvvatlash yuzaga kelgan, davlat butun choralar bilan o'z fuqarolari haqida g'amxo'rlik qilgan. Aholiga jabr-zulm o'tkazganlarni, o'g'ri-tolonchilarni, bosqinchilarni qattiq jazolagan, xalq esa bunga javoban Amir Temur olib borgan siyosatni qo'llab-quvvatlab, u o'rnatgan qonun-qoidalarga rioya etgan [2].

Amir Temur o'z davlatini har qanday kutilmagan voqealardan, destruktiv (buzg'unchi) ta'sirlardan saqlashni, himoya qilishni bilgan. Ularga qarshi qattiq chora-tadbirlarni amalga oshirgan. Davlatni kuchli va mustahkam, xalqini baxtli va uning hayotini farovon qilishni uddalay olgan. U o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga qat'iylik bilan erishgan. Shuning uchun ham u o'sha davrda dunyodagi eng kuchli saltanatga ega edi. Tabiiy savol tug'iladi: Amir Temurning davlatni boshqarishdagi yutuqlarini siru mohiyati nimada ekan?

Unda inson omili doimo oldingi o'rinda bo'lganligini nazarda tutish kerak. Bu omil uning harbiy tashkilotchiligida va davlatga boshchilik qilishida hamisha yo'ldosh bo'lgan. Temur o'z atrofiga odam tanlashda ularning qobiliyatlarini hisobga olgan, lekin nasli, tabaqasi, irqi, dini va mansabiga qaramagan. Hozirgi davr ta'biri bilan aytganda, o'z atrofiga munosib kishilarni to'play olgan.

U o'ta sinchkov bo'lib, yuz beradigan barcha ishni ko'rib-bilib turar edi. Uning nazarida, aldovchining aldovi yashirinib qolmas va firibgarning firibi o'tmas, o'z farosati bilan haqqo'y va yolg'onchini ajratar edi [3].

Temurbek o'zi zabt etgan yurtlardagi mansabdorlarga tegmagan, odamlarning hayot tarziga aralashmagan. Joylardagi amaldorlarga o'zining qat'iy ko'rgazmalarini bergan va boshi bilan javob berishlarini uqtirgan, na o'zi, na yaqinlari bevosita idora qilmagan[4].

U butun umri bo'yi odil bo'lgan, saroy mulozimlariga aloqadorligi, mansabi va boyligiga qaramay, gunoh qilgan kishini o'ta qattiqqo'llik bilan jazolagan.

Amir Temur arkoni davlatda halol, sidqidildan xizmat qilganlarni taqdirlab, martabalarini yuksaltirgan, ig'vogar, zulmkorlarning qattiq jazosini bergan. Uning fe'l-atvorida ikkilanish, og'machilik, bugun bir so'zni aytib, ertasiga unga qarama-qarshi boshqa so'z aytish bo'lmagan.

U o'ziga muxolifatda bo'lgan kuchlar bilan kelishib, sobiq dushmanlarining kuch va imkoniyatlaridan davlat taraqqiyoti yo'lida foydalangan. Amir Temur o'z maqsadlariga erishish, qudratli saltanatni barpo etishda yetuk mutaxassislariga, ayniqsa ishbilarmon, bilimli, adolatli va dono vazirlarga tayangan.

Amir Temur o'z saltanati va yon-atrof mamlakatlarda bo'layotgan sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni sergaklik bilan kuzatgan va ehtimoliy xavf-xatarlarni oldini olgan [5].

Amir Temur, avvalo, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ichki xavfni, destruktiv ta'sirlarni bartaraf etishga harakat qilgan. Bunday xavfni shoh xonadoni vakillari, qavm-qarindoshlar, hokimiyatga intilgan amaldorlar, badavlat zodagonlar keltirib chiqarishi mumkin edi.

“Temur tuzuklari” da mamlakatda barqarorlikning buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan omillar haqida shunday ma’lumotlar berilgan: “ Amr qildimki, agar o‘g‘illarimdan qaysi birovi saltanat martabasiga da’vogarlik qilib qilib bosh ko‘tarar ekan, uni o‘ldirishga, bog‘lashga yoki muchasidan bir joyini kamaytirishga hech kim jur‘at qilmasin. Lekin o‘z davosidan kechmaguncha asirlikda saqlansinlar, toki xudoning mulkida urush chiqmasin” [6].

Amir Temur davlat rahbari mamlakat boshqaruviga bog‘liq masalalarni olimlar, siyosiy arboblarning maslahatiga tayanib va kengashlarda ko‘rib chiqib, so‘nggi nuqtada bironing fikriga ergashmay o‘zi hal qilishi, shoshmay, mulohaza bilan ish tutishi lozimligini ta’kidlagan. U davlat arboblarning dushmanlari, hasadgo‘y va tuhmatchi kishilar ko‘p bo‘lishini, ba‘zan amaldorlar o‘z vazifasini suiste‘mol qilishi mumkinligini yaxshi bilgan. U hukmdor o‘z qo‘l ostidagilar haqidagi gaplarni eshitish, gumon qilinayotgan kishining aybi isbotlanganidagina jazolashni uqtiradi, bu masalada ehtiyotkorona ish tutishga chaqiradi [7].

Sohibqiron qurgan bepoyon saltanatning barcha hududlarida bunyod etilgan nodir me’moriy obidalar, tengsiz bog‘u-rog‘lar Temurbek bobomizga xos amaliy shijoat samarasidir. Uni faoliyatining asosiy ma’nosi – “Vatan ozodligi, vatanga muhabbat” degan oliy qadriyatlardan iborat bo‘lib, Sohibqiron bobomizning ruhiyati istiqloq va hurlik, erkinlik g‘oyalari bilan tabiiy va go‘zal bir ravishda uyg‘unlashib ketganligini, u hatto umrining so‘nggi onlarida ham zurriyodlariga qarata “Istiqloq bilan mulku millat, lashkar va ra‘iyatni boshqaringiz” deb vasiyat qilganligini, bu vasiyat aynan bizlar uchun – buyuk sohibqironning bugungi kun avlodlari uchun aytilgani bejiz emas [8].

Xulosa qilib aytganda, bugungi va kelajak avlodlarga Amir Temur hazratlarining davlat boshqaruvidagi olib borgan harbiy, ma’naviy merosini yetkazish, eng muhimi, ajdodlarimiz amalga oshirgan buyuk ishlar to‘g‘risidagi bilimlarini chuqurlashtirish zarur ehtiyojga aylanmoqda.

O‘z davlatini har qanday buzg‘unchi g‘oya va ta’sirlardan saqlashni, himoya qilishni bilishi, ularga qarshi qattiq chora-tadbirlarni amalga oshirib, oldiga qo‘ygan maqsadlariga qat’iylik bilan erishgan. Shuning uchun ham u o‘sha davrda dunyodagi eng kuchli saltanatga ega edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharq yulduzi. 1996 yil. №3. 106-bet.
2. Keren L., Saidov A. Amir Temur va Fransiya.-T.: Adolat, 1996. 18-bet.
3. O‘ljaeva.Sh. Amir Temur davlat boshqaruvi (matn). -Toshkent: Akademya nashri, 2017. 35-bet.
4. Keren L., Saidov A. Amir Temur va Fransiya.-T.: Adolat, 1996. 49-bet.
5. Amir Temur davlat boshqaruvi. 2017.36-bet.
6. Muhammad Ali.Temur tuzuklari.Toshkent: Sharq, 2005.139-bet



7. Amir Temur davlat boshqaruvi [Matn]. -Toshkent: Akademnashr, 2017.
25-bet.
8. <https://yuz.uz/news/amir-temur-buyuk-davlat-arbobi-va-qudratli-sarkarda>.

